insonning faol harakati, ichki kuchi va uzluksiz mehnati bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Shu bilan birga, frazeologizmlarning obrazli asosida milliy-madaniy xususiyatlar yaqqol seziladi: ingliz tilida individual muvaffaqiyat, tashabbuskorlik va natijadorlik g‘oyalari kuchliroq aks etsa, o‘zbek tilida jamoaviylik, sabr-toqat va fidoyilik kabi qadriyatlar ustuvor ko‘rinadi. Bu holat maqsadga yo‘naltirilganlik konsepti umuminsoniy mazmunga ega bo‘lsa-da, uning til orqali ifodalanishi har bir xalqning tarixiy tajribasi va madaniy dunyoqarashi bilan belgilanib, o‘ziga xos semantik rang-baranglik kasb etishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent, “Sharq”, 2010.

(2). Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Talqin”, 2005.

(3). Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologiyasi. O‘quv qo‘llanm, Toshkent, “Navro‘z”, 2019.

(4). Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiyoti: darslik. Toshkent, “Universitet”, 2016, 420-bet.

(5). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi. Toshkent, “Universitet”, 1992.

(6). Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. Москва, “Наука”, 1977.

(7). Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз., Москва, “Высш. шк.”, Дубна, изд. центр «Феникс», 1996.

(8). Чайко Т.Н. Названия частей тела как источник метафоры в апеллятивной и ономастической лексике. “Вопросы ономастики”. 1974, № 8–9, с. 98–106.

(9). Чердынцева Т.З. Метафора и символ во фразеологических единицах. Метафора в языке и тексте. Москва, “Наука”, 1988, с. 78–92.

(10). Чернышева И.И. Актуальные проблемы фразеологии. “Вопросы языкознания”, 1977, №5, с.53–60.

Sadiqov Zoxid Yaqubjanovich (NamDU, filologiya fanlari doktori),
Rajapova Ro‘zigul Mansurbek qizi (Urganch davlat universiteti magistranti)

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI GENDER XUSUSIYATLARINI AKS ETTIRUVCHI MAQOLLARDA AYOL TASVIRI

Annotatsiya. *Bu maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi ayol obrazi qatnashgan maqollar qiyoslab o‘rganildi. Ushbu tadqiqot ishi davomida ikkala xalq maqollarida ayollarga berilgan tasvirlar lingvokultorologik jihatdan tahlil qilinib o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Maqolada maqollarni o‘rganish chog‘ida ularni tur xil tematik guruhlarga bo‘lib o‘rganish olib borildi.*

Kalit so‘zlar*: ayol, go‘zallik, turmush o‘rtoq, ona, uy bekasi, kelin.*

Садыков Зохид Якубжанович (НамГУ, доктор филологических наук),
Раджапова Рузигуль Мансурбек кизи (магистрантка Ургенчского государственного университета)

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПОСЛОВИЦАХ, ОТРАЖАЮЩИХ ГЕНДЕРНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ, НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье сравниваются английские и узбекские пословицы, в которых изображен образ женщины. В ходе исследования образы женщин в обеих народных пословицах были проанализированы лингвистически и культурно, выявлены их сходства и различия. В процессе изучения пословиц в статье они были разделены на различные тематические группы.*

Ключевые слова*: женщина, красота, супруга, мать, домохозяйка, невеста.*

Sadiqov Zoxid Yaqubjanovich (NamSU doctor of philology),
Rajapova Ruzigul Mansurbek kizi (master of Urgench State University)

THE IMAGE OF WOMEN IN PROVERBS REFLECTING GENDER CHARACTERISTICS IN UZBEK AND ENGLISH

Annotation. *This article compares proverbs in English and Uzbek that feature the image of women. In the course of this research, the images of women in both folk proverbs were analyzed linguistically and culturally, and their similarities and differences were identified. In the course of studying the proverbs in the article, they were divided into various thematic groups to explore.*

Keywords*: woman, beauty, spouse, mother, housewife, bride.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda gender masalasi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi nuqtayi nazardan talqin qilish imkonini bermoqda. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan biri bo‘lgan maqollar gender rollarining tarixiy va madaniy shakllanishini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. Maqollar xalqning ijtimoiy tajribasi, axloqiy me’yorlari va qadriyatlarini mujassam etgan ixcham, lekin mazmunan serqatlam birliklardir.

Adabiyotlar tahlili. G‘.Salomov maqolga shunday ta’rif beradi: Maqol turmushda sinalgan, ma’lum ezgu, tugal, umumiy ma’noga anglatuvchi, ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir [1;265-b.]. U.Ahmedova xalq maqollari ommaning muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosalarini, hukm va tavsiyalarini o‘zaro mukammal tarzda mujassamlashtirgan o‘ziga xos badiiy shaklga ega bo‘lgan ifoda va iboralardan iborat

deya e'tirof etadi [2;13-b.]. Ingliz olimi esa unga quyidagicha ta'rif beradi: In English a proverb is a short saying of practical truth that's easy to remember (Ingliz tilida maqol eslash uchun oson bo'lgan amaliy haqiqatning qisqacha aytilishi) [3;26-b.].

Maqollarda ayol obrazlari muayyan stereotiplar asosida ifodalanib, jamiyatning genderga oid qarashlarini ochib beradi. Maqollarda ayol obrazini aks ettishi mavzusi yuzasidan Mineke Schipper ismli olim tadqiqot ishlarini olib borgan va o'z o'rganish natijalari, yakuniy xulosalarni "Never marry a woman with big feet" nomli asarida bayon etgan. Bu asarda olim turli xil millatlarning ayol obrazi qatnashgan maqollarni o'zaro o'xshash variantlari yoki mazmun jihatdan biroz farq qiladiganlari bilan chambarchas qiyoslab o'z ilmiy qarashlarini bitadi. M.Schipperning bu asarida ayollarning tashqi ko'rinishini tanqid qiluvchi yoki, aksincha, ulug'lovchi, ayolning jamiyatdagi o'rnini tasvirlovchi, oiladagi har xil rollari haqida maqollarni o'rganib chiqdi. U bu asarida ayollarni oilaviy zo'ravonlikning qurboni sifatida tasvirlaydi [4;261-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi gender xususiyatlarini aks ettiruvchi maqollarda ayol obrazining lingvokulturologik va pragmatik jihatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – har ikki tilda ayol obrazining qanday ijtimoiy rollar orqali ifodalanishini, o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

Tahlil va natijalar. Biz, avval, o'zbek va ingliz tilidagi ayol obrazi qatnashgan maqollarni guruhlarga bo'lib qiyosiy tahlil qilishdan boshlaymiz:

Ayol go'zallik timsoli sifatida.

Ayolning sunbuli – yigitning dili.

Sumbul taqimda, Yigit ko'zi unda.

Bu maqollar orqali biz o'zbek xalqining milliy mentalitetida ham boshqa xaqlar singari suluv ayollarga alohida qarama-qarshi jins vakillari tomonidan alohida e'tibor berilishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Biroq ayrim xalq maqollari borki, ular milliy hamjamiyatimizda ibo-hayo masalalari hamma narsadan ustuvor hisoblanishini yaqqol aks ettiradi:

Suluvidan jiluvi yaxshi.

Pardali qiz – pariga tengsiz.

Bizda barcha musulmon xalqlarga o'xshab e'tiqod kuchligi, milliy odob-axloq va etiket normalariga bo'lgan yuqori darajadagi hurmat yuqoridagi maqollarda o'z ifodasini topgan.

Ingliz xalq maqollarida ayol obrazi, ko'pincha, tashqi chiroy bilan bog'lab tasvirlanadi. Ingliz xalq maqollarida ayol go'zalligi bilan bog'liq gender stereotiplari ayolni tashqi qiyofa orqali baholash, go'zallikni axloqiy xavf sifatida ko'rish hamda ayolni ijtimoiy passiv subyektga aylantirish kabi qarashlarni aks ettiradi. Bu holatlar tilning gender ideologiyalarini shakllantirish va mustahkamlashdagi muhim rolini ko'rsatadi: A woman's beauty is her best dowry (Ayolning chiroy uning eng yaxshi sepi).

"A woman's beauty is her best dowry" maqolida ayolning ijtimoiy qiymati uning tashqi go'zalligi orqali baholanadi. Bu holatda ayol shaxs sifatida emas, balki nikoh obyekti sifatida tasvirlanadi. Ushbu stereotip ayolning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligini inkor etuvchi patriarxal qarashlarning ifodasidir.

Ayol turmush o'rtoq sifatida.

Xotinning yomoni – umrning egovi.

Xotining yaxshi bo'lsa, yoqang oqarar,

Xotining yomon bo'lsa, soqoling oqarar.

Yuqorida keltirilgan misollarda o'zbek oilalardagi er-xotinning oilaviy turmush tarzi tasvirlab beribgina qolmay, ularning hayotiy tajribasini ham qisqa, lo'nda jumlalar orqali keying avlodga yetkazgan meros va pand-nasihat sifatida qabul qilish eng maqbul ishdir. Ajdodlarimiz bu jumlalar orqali yoshlarga umr yo'ldosh tanlashda ehtiyotkorlikka chaqirgan bo'lsa, ajablanarli emas. Chunki o'zbek xalqi uchun oila muqaddas maskan va uni asrab-avaylash hamma narsadan ustun deb qaraladi. Shu bois bir umrga birga yashaydigan inson yaxshi xulq-atvorga ega bo'lishiga ishonch hosil qilish muhimligi va ota-ona o'rtasidagi ajrimga yo'l qo'ymaslik uqdiriladi. Shuning uchun bu maqollar erkaklarimizga o'z jufti halollarini yaxshi odob axloqqa ega va yaxshi tarbiya olgan qizlardan tanlashga bilvosita maslahat yoki tavsiya beryotgan bo'lishi ham mumkin.

A good wife makes a good husband.

(Yaxshi xotin yaxshi erni yaratadi).

A blind man's wife needs no paint.

(Ko'rning xotiniga pardoz ne hojat).

Mazkur ingliz maqollarida oilaviy munosabatlar doirasida er va xotin rollarining o'zaro ta'siri, shuningdek, nikohdagi uyg'unlik va barqarorlik masalasi xalqona tafakkur orqali aks ettiriladi. Xususan, "A good wife makes a good husband" maqolida ayol obrazi, ya'ni, xotin nafaqat oilaviy muhitni tartibga soluvchi, balki erning axloqiy va ijtimoiy kamolotida hal qiluvchi omil sifatida tasvirlanadi. "A blind man's wife

needs no paint" maqolida esa tashqi go'zallikning nisbiyligi va subyektivligi ta'kidlanadi. Mazkur maqol nikoh munosabatlarida tashqi ko'rinishdan ko'ra ichki sifatlar, sadoqat va moslik ustuvor ekanligini bildiradi. Shu orqali jamiyatda ayolning qadr-qimmati faqat tashqi joziba bilan emas, balki oilaviy vazifalarni ado etishdagi ichki fazilatlari bilan belgilanishi haqidagi stereotip mustahkamlanadi.

Ayol uy bekasi sifatida.

Uyni uy qilgan erning topishi-yu
Xotinning ko'rpa ishi.

Ayolning sarishtasi – ro'zg'orning farishtasi.

O'zbek oilalarda boshqa xalqlardan farqli o'laroq, islom dinida yozilgandek uyning sarishtaligi, ro'zg'orning fayzi ayollar, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ko'proq kelinlar zimmasida bo'ladi. Uyning sarishta-yu saranjom bo'lishi ayol kishining uyga qay darajda e'tibor qaratishi va mehr berishini ko'rsatib beruvchi oyna demakdir. Bu maqollarda ham o'zbek ayollarning o'z uylariga bo'lgan mehrli munosabati aks etgan.

A woman's place is in the home.

Mazkur maqolda ingliz mentaliteti ham ayollarning asosiy vazifasi uy yumushlari, deya qaralgan. Biroq bu maqol hozirgi genderlik hamjamiyatimizdagi zamonaviy dunyoqarashlarimizga zid hisoblanadi. Bu maqol-ning mazmuniga yaqin maqollar o'zbek tilida ham juda ko'p uchraydi. Shundan anglashimiz mumkinki, ayol-larning ikkala xalqlar madaniyatida ham ayolning asosiy vazifasi uy yumushlari hisoblanadi.

Ayol ona sifatida.

Onang ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada.
Onali yetim – gul yetim, Otali yetim – shum yetim.

Azaldan biz xalqimiz onalarining bolalariga bo'lgan e'tibori boshqacha. Bizning onalarimiz boshqa har qanday xalq onalariga qaraganda ham bolajon onalar. Ular har qanday sharoitda bolalari o'zlaridan ortiq sevsa sevadi-yu, lekin hech qachon kam sevmaydi. Ular umri bolalariga bag'ishlab hayot kechiradi desak, menimcha, adashmagan bo'lsak kerak. Ha, bu maqollarda ham onajonlarimizning bizga bo'lgan mehr-muruvvating tasviridir. Ona qay yerda qay holatda bo'lmasin, ko'ngilining tub-tubidan bolajonlari uchun hamisha qayg'uradilar. Ammo biz hamisha nima bilandir bandmiz. Yuqorida berilgan birinchi maqolda ham aynan shu holat ifoda etilgan.

A mother's love never ages.

Onaning muhabbati hech qachon qarimaydi.

The hand that rocks the cradle rules the world.

Beshik tebratgan qo'l dunyoni boshqaradi.

Bu maqollarda onalik muhabbati vaqt va makondan mustaqil, doimiy va o'zgarmas qadriyat sifatida talqin qilinadi. Ona mehrining cheksizligi va barqarorligi asosiy g'oya sifatida ilgari suriladi. Ayniqsa, "The hand that rocks the cradle rules the world" maqolida onaning tarbiyaviy rolini yuksak baholaydi. Unda jamiyat ke-lajagi bevosita onaning bolaga bergan tarbiyasiga bog'liq ekanligi metaforik tarzda ifodalanadi.

Ayollarning mehnat faoliyati.

Xotin-qizning ishini tovuq cho'qib bitarolmas.
Erta turgan xotinning bir ishi ortiq,
Erta turgan yigitning rizqi.

Ko'pincha, xalq maqollarimizda o'zbek ayollarining yumushi cheksiz yoki ularning o'zi juda dangasa sifatida ko'rsatilgan jumlalar mavjud. Chunki xalqimiz ayollari azal-azaldan tozalikni, poklikni, saramjom-sarishtalikni juda yaxshi ko'rgani bois uyini, ko'chasini obod qilishga juda katta e'tibor qiladi. Shuning uchun ularning ishlari juda ko'p deb tasvirlangani milliy madaniyatimizni mukammal gavdalantirgan. Biroq bu maqollarning negizida ayollarning mehnatsevarligi yuksak qadrlashini ham anglashilsa bo'ladi.

Women's work is never done (Xotin-qizning ishi hech qachon tugamaydi).

Ushbu maqol ayollarning, ayniqsa, uy-ro'zg'or va parvarish bilan bog'liq mehnati doimiy va uzluksiz ekanini ifodalaydi. Ayol bajaradigan ishlar aniq vaqt bilan chegaralanmagan: bir ish tugashi bilan boshqasi boshlanadi. Shu sababli bu mehnat hech qachon "yakunlangan" deb hisoblanmaydi. Maqolda an'anaviy gender rollari aks etib, ayolning asosiy vazifasi uy ishlari va oilaga xizmat qilish sifatida talqin qilinadi. Bu holat ayol mehnatining ko'pincha e'tiborsiz qolishi va yetarli darajada qadrlanmasligini ko'rsatadi. Zamonaviy nuqtayi nazardan qaralganda esa mazkur maqol gender tengsizligini yorituvchi tanqidiy birlik sifatida baholanib, jamiyatda mehnat taqsimotini qayta ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

Ayollardagi kelinlik turmush tarsi.

Kelin kelag'on bo'ldi,

Ovul kezag‘on bo‘ldi.
Onasiz kelin yuvosh,
Onali kelin bebosh.

Ushbu xalq maqollari va matallarda o‘zbek an’anaviy jamiyatida kelin obrazi, unga bo‘lgan munosabat hamda ona–qiz–kelin uchligi orqali shakllangan tarbiyaviy qarashlar aks etadi. Dastlabki maqolida kelinning kelishi bilan xonadonda, hatto butun ovul hayotida muayyan o‘zgarishlar yuz berishi ta’kidlanadi. Kelin faqatgina oila a’zosi emas, balki ijtimoiy muhitga ta’sir etuvchi shaxs sifatida talqin qilinadi. Bu yerda kelinning harakati va xulqi jamiyat nazarida muhim omil sifatida baholanadi.

“Onasiz kelin yuvosh, onali kelin bebosh” maqolida esa ona obrazining qiz tarbiyasidagi roli muhokama qilinadi. An’anaviy qarashlarga ko‘ra, onasiz ulg‘aygan kelin itoatkor, kamgap bo‘ladi, onasi bor kelin esa o‘z fikrini ochiq bildiradigan, mustaqilroq bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolda ayolning mustaqilligi, ko‘pincha, salbiy (beboshlik) sifatida talqin qilinib, patriarxal tafakkur izlari yaqqol seziladi.

Ingliz xalq maqollari to‘plamlarida kelin obraziga doir maqollar uchramaydi. Balki, o‘zbek madaniyatidan farqli ravishda ingliz madaniyati qaynona kelinlar deyarli birga yashamaganlari uchun maqollarida kelinlik vazifalari, majburiyatlari va qaynona-kelin munosabatlari aks etgan maqollar mavjud bo‘lmasa kerak. O‘zbek oilalarda eng ko‘p uchraydigan muammo qaynona-kelin munosabatlari va kelinning uy yumushlarni bajarishi bo‘lgani bois bu milliy turmush tarzimiz maqollarimizda ham bejiz ta’kidlanmagan bo‘lsa kerak.

Gender lingvistikasi doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, til birliklari, jumladan maqollar, jamiyatda ayol va erkak rollarini mustahkamlovchi muhim vosita hisoblanadi. Robin Lakoff ayollar nutqidagi va ularning til orqali ifodalanishidagi farqlar jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning lingvistik ko‘rinishi ekanini ta’kidlaydi [5;8–10-b.]. Deborah Tannen esa erkaklar va ayollar o‘rtasidagi kommunikativ tafovutlar maqollarda ham bilvosita aks etishini qayd etadi [6;8–10-b.].

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz maqollarida ayol obrazi umumiy jihatlarga ega bo‘lishiga qaramay, ularning mazmuniy va pragmatik talqini turlicha. O‘zbek maqollarida ayol ko‘proq kollektiv qadriyatlar doirasidagi burchlari orqali talqin qilinsa, ingliz maqollarida individualizm va shaxsiy mas’uliyat omillari ustuvorlik qiladi. Biroq ikkala madaniyatda ham ularning anchagina hissiy, ruhiy va amaliy hissalarini inobatga olib, ularni oilaviy hayotni barqarorlashtirishda asosiy shaxs sifatida tasvirlanadi [7;477–486-b.]. Demak, ayol obrazi har ikki tilda ham gender stereotiplarini aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik sifatida namoyon bo‘lib, milliy mentalitet va madaniyatning muhim ko‘rsatkichidir.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, o‘zbek xalq maqollarida ayol obrazi, avvalo, ona, oila tayanchi, axloqiy poklik va tarbiya manbai sifatida tasvirlanadi. Ayolning sabr-toqati, mehribonligi, fidoyiligi va oiladagi muhim o‘rni ko‘plab maqollarda ijobiy baholanadi. Bunday maqollar orqali ayol jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ayrim maqollarda ayol obrazi patriarxal qarashlar ta’sirida stereotipik tarzda, ya’ni itoatkorlik va uy-ro‘zg‘or bilan cheklangan rol doirasida ifodalanadi. Bu holat o‘zbek jamiyatining an’anaviy ijtimoiy tuzilishi bilan izohlanadi.

Ingliz tilidagi maqollarda esa ayol obrazi nisbatan murakkab va ziddiyatli xarakterga ega. Ayrim maqollarda ayol donoligi, ziyrakligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati e’tirof etilsa, boshqa bir guruh maqollarda ayol obrazi tanqidiy yoki kinoyaviy ruhda beriladi. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ingliz maqollarida ayol obrazining bunday ikkiyoqlama tasviri jamiyatda mavjud gender stereotiplari va ijtimoiy tengsizlik bilan bog‘liqdir [8;56–60-b.].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Salomov G‘. Til va Tarjima. Toshkent, 2022, 265-bet.

(2). Axmedova U. (2014). Ingliz va o‘zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari. Urganch, 2014, 13-bet.

(3). Raymond C., Ortlund J.R. Proverbs: Wisdom that works. Crossway. 1300 Cresent Street Wheaton, Illinois. 2012, 26 p.

(4). Schipper M. Never marry a woman with big feet. Amsterdam University Press, 2006.

(5). Lakoff R. (1975). Language and Woman’s Place. New York, Harper & Row. https://books.google.com/books/about/Language_and_Woman_s_Place.html. 8–10-betlar.

(6). Tannen D. (1990). You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. New York, Ballantine Books. 42–45-betlar

(7). Artikova D. A comparative analysis of gender characteristics in English and Uzbek proverbs reflecting husband-wife relationships. Journal of advanced linguistic studies. Vol. 12, № 1, Jan-Jun 2025.

(8). Mahmudov N. (2010). Til va madaniyat. Toshkent, “Fan”, 56–60-betlar.